

**Erasmus+ dasturi**

Erasmus+ - ta'lif, professional ta'limi taraqqiy ettirish, yoshlarni kamolotga yetkazish va sportni rivojlantirish sohalari bo'yicha Yevropa Ittifoqining dasturidir (<http://ec.europa.eu/programmes/erasmus-plus/>).

Erasmus+ dasturi (2014-2020) yuqorida keltirilgan sohalar bo'yicha Yevropa Ittifoqi davlatlari va hamkor-davlatlar bilan hamkorliklarini rivojlantirish maqsadida moliyalashtiriladi.

Uch asosiy yo'naliш (Key Actions) doirasida talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilarning xalqaro almashinuvini qo'llab-quvvatlaydigan, shuningdek, universitetlar o'tasida intellektual fikr almashish va eng yaxshi amaliyotlarni qo'llab-quvvatlaydigan grantlar orqali individual va jamoaviy ishtirok uchun imkoniyatlardan taqdim etiladi.

Erasmus+ 2020 yil tanlovi

2020 yil uchun tanlov 2019 yilning oktyabr oyida e'lon qilinadi, axborot kampaniyasi joriy yil bahorida boshlandi. Yil davomida Milliy ofis tomonidan respublikamiz viloyatlarida va OTMlarda bir qator axborot seminarlar tashkil etildi.

O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarini (OTM) uchun quyidagi hamkorlik imkoniyatlari ochiq:

1. Oliy ta'lifda salohiyatni oshirish/Capacity Building in Higher Education
2. Xalqaro kredit mobilligi/International Credit Mobility
3. Erasmus Mundus Qo'shma magisterlik darajalari/Erasmus Mundus Joint Master Degrees
4. Jean Monnet

Axborot kunining vazifalari

- O'zbekiston oliy ta'lif muassasalariga Yevropa universitetlari bilan hamkorlik o'rnatish mumkin bo'lgan imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berish
- Tempus va Erasmus+ dasturlari doirasidagi hamkorlikning 25 yilligi munosabati bilan 2019 yil 4 oktyabridan 12 oktyabriga qadar bo'lib o'tadigan navbatdagi Erasmus+ haftaligi davomida tashkil etiladigan bir qator tadbirlar to'g'risida ma'lumot berish
- Erasmus+ dasturi bo'yicha fakultetlar, kafedra va bo'limlar uchun kollektiv ishtirok etish imkoniyatlarini, shuningdek, talabalar va o'qituvchilar uchun individual tarzda stipendiyalar olishga oid maslahatlar berishda xalqaro aloqalar bo'limlarining salohiyatini mustahkamlash
- Loyiha takliflarini ishlab chiqish va yaxshi loyiha menejmenti borasida amaliy tavsiyalar taqdim etish
- 10, 11 va 12 oktyabr kunlari Haftaning so'nggi uch kuni "Erasmus kunlari – 2019" doirasida dunyoning barcha mamlakatlarida dastur faoliyatining nishonlanishi haqida ma'lumot berish

Ishtirokchilar va tadbir o'tkaziladigan manzil

Ishtirokchilar: respublikaning barcha OTMlari o'quv-ma'muriy xodimlari, Yevropa Ittifoqiga a'zo-davatlarning O'zbekistondagi elchixonalari, soha vazirliklar, oliy ta'limi rivojlantirishga qiziqish bildirgan nodavlat muassasalar, tashkilotlar va ishlab chiqarish birlashmalari vakillari, Erasmus+ loyihalarining koordinatorlari va a'zolari

Tadbir o'tkaziladigan manzil: Toshkent davlat texnika universiteti, O'zbek-yapon markazining 1-qavatdagisi konferentsiya zali, Universitet ko'chasi 2, Tel. +99871 2460112 <http://tdtu.uz/>

Tashkilotchilar

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (OO'MTV), O'zbekiston Respublikasidagi Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasi, O'zbekistondagi Erasmus+ Milliy ofisi va Ekspertlar milliy guruhi, Toshkent davlat texnika universiteti

O'zbekiston uchun Erasmus+ 2019 yil tanlov natijalari Oliy ta'limalda salohiyatni oshirish

Avgust oyining boshida 2019 yil CBHE tanlov natijalari e'lon qilindi, Markaziy Osiyoning 5 davlati uchun 9.42 million yevro, butun jahon davlatlari uchun umumiy byudjet 136 million yevroni tashkil etadi. Tanlov komissiyasiga 840 loyiha taklifnomalari kelib tushgan bo'lsa shundan 136ta loyiha moliyalashtirish uchun tavsiya etilgan.

Markaziy Osiyoning davlatlari bo'yicha umumiy hisobda 15ta yangi loyihalar, shu jumladan O'zbekiston oliy ta'limalda muassasalarini ishtirokida 5ta loyiha moliyalashtirish uchun tanlab olingan. Oliy va o'rta maxsus ta'limalda vazirligi 2ta loyiha bevosita ishtirok etadi.

Respublikaning 14ta OTMlari, shu jumladan Toshkent shahridagi 7ta OTM, 6ta viloyatdagi 7ta OTM yangi 5ta loyiha ishtirok etadi, ularning 2tasi milliy loyihalar bo'lib (1.8 mln yevro), Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston ishtirokida 2ta mintaqaviy loyiha (1.8 mln yevro), shuningdek Falastin va Tunis ishtirokidagi 1ta mintaqalararo loyihalardir (1 mln. yevro).

Yangi loyihalarda 18ta Yevropa Ittifoqining 13ta universitetlari, shuningdek, 5ta Hamkor-Davlatdan 13ta universitetlar ishtirok etadi.

Yangi loyihalar Markaziy Osiyodagi madaniy meros obyektlarining ekologik xavfini baholash va yumshatishga qaratilgan; o'quv va tadqiqot markazlarini yaratish va katta ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish bo'yicha kurslarni rivojlantirish; mexatronika va robotexnika bo'yicha magistratura dastruini takomillashtirish, shuningdek kosmik tizimlar va kommunikatsiyalash bo'yicha yangi o'quv dasturini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Shuni aytib o'tish lozimki, Milliy san'at va dizayn instituti, O'zbekiston davlat konservatoriyasi va Farg'ona politexnika institutlari ilk marotaba Erasmus+ loyihalarida ishtirok etadi. Uzoq muddat davomida kutilgan yangiliklardan biri bu respublika universitetlarining salohiyati o'sib borayotganligining dalilidir, ya'ni Toshkent axborot texnologiyalari universitetining SPACECO loyihasida grant oluvchi-koordinator rolini bajarishi, butun xalqaro konsortsiumni va loyiha byudjetini boshqarish deganidir.

Yangi 5ta loyihani hisobga olgan holda, respublikada Erasmus+ Oliy ta'limalda salohiyatini oshirish bo'yicha 37ta loyihalarida universitetlarining umumiy soni 51tani tashkil etadi. 2019/2020 o'quv yilida salohiyatni oshirish uzoq muddatli loyihalarning umumiy soni 26 tani tashkil qiladi.

Xalqaro kredit mobilligi

"Xalqaro kredit mobilligi" yo'nalishi bo'yicha 2019 yil 5 fevralga qadar topshirilgan so'ngi tanlov natijalari yaqin kunlarda e'lon qilinishi rejalashtirilgan. Ushbu Yo'nalish doirasida o'qituvchi va talabalar ikki tomonlama almashinuvni amalga oshiriladi, 150 Kredi mobilligi loyihalarida respublikaning 61ta OTMlari, shu jumladan 28ta Toshkent OTMlari va 11 respublika viloyat va Qoraqalpog'istondan 33 OTMlari ishtirok etadi.

HEREs Milliy guruhi va TAM seminarlari

Oliy ta'limalda faoliyat yuritadigan ekspertlar milliy guruhining (Higher Education Reform Experts-HEREs) asosiy vazifalari – respublika oliy ta'limalda tizimining ravnaqi haqidagi ma'lumotlar hamda Boloniya jarayonining 48 ishtirokchi-davlatlardagi oliy ta'limidagi o'zgarish va yangiliklar bilan bo'lismishdan iborat.

Guruhning ko'p sonli vazifalaridan biri - Oliy va o'rta maxsus ta'limalda vazirligi bilan kelishilgan va ilgari qabul qilingan mavzular bo'yicha Yevropa professor-o'qituvchilarining ishtirokida maqsadli seminarlar tashkil etishga qaratilgan Texnik yordam missiyalari (Technical Assistance Mission - TAM)ning amalga oshirilishidir. So'nggi 3 yil davomida 13 TAM seminarlari tashkil etildi (Qozog'istonda bo'lib o'tgan 1 TAM seminari) va ular kredit-modul tizimi, nolinguistik yo'nalishlar uchun ingliz tili bo'yicha dars o'tish uslubiyoti, doktorantura, ta'limalda sifati, ta'limalda natijalari, kvalifikatsiya tizimlari, bitiruvchi talabalarni ish bilan ta'minlash va boshqa mavzularni qamrab olgan.

Milliy guruh tashabbusiga ko'ra, bir necha yildan buyon oliy ta'limalda dolzarb masalalariga oid "**Oliy ta'limalda taraqqiyoti istiqbollari**" nomli Maqolalar to'plami nashr etib kelinmoqda. Yettinchini to'plam 2019 yil 6 dekabr kuni guruhning yillik yakuniy anjumanda taqdim etiladi va www.erasmusplus.uz saytida keng jamoatchilik uchun joylashtiriladi. Shu qatorda navbatdagi "Erasmus+ Xalqaro kredit mobilligi: ta'limalda sifatini oshirishdagini o'rni" mavzusida uchinchi respublika ilmiy-amaliy anjuman 2019 yil 22 noyabr kuni Toshkent shahridagi OTMlari birida tashkil etilishi rejalashtirilgan.